

**O'ZBEK VA QOZOQ BESHIKLARINING O'XSHASHLARI VA FARQLARI**

**Orzubek O'ralov**

O'zMU Tarix fakulteti Tarix yo'naliishi 2-bosqich talabasi

e-mail: [orzubekurolov06@gmail.com](mailto:orzubekurolov06@gmail.com)

Tel: + 998 – 99 – 500 – 75 – 68

**Abstract:** In this article, the article on the similarities and differences of Uzbek and Kazakh cradles is aimed at studying the traditional cradle culture of the two nations. The article analyzes the similarities and differences in the design, materials, decoration and use of Uzbek and Kazakh cribs. It also shows how important these cradles are in the national heritage, historical and cultural context. In the course of study, attention is paid to the role of cribs not only in creating comfort for children, but also in maintaining family and social values. The article aims to highlight the uniqueness of Uzbek and Kazakh culture and their influence on each other.

**Key words:** Besik, gavraposh, yapgich, beshiktoy, beshikkerti, kuvuz, emgoch, kolbog, tisti ma?, belagash, sumak, tuvak.

**Абстрактный.** В данной статье статья о сходстве и различиях узбекских и казахских колыбелей направлена на изучение традиционной колыбельной культуры двух народов. В статье анализируются сходства и различия в конструкции, материалах, отделке и использовании узбекских и казахских детских кроваток. Это также показывает, насколько важны эти колыбели в национальном наследии, историческом и культурном контексте. В ходе изучения уделяется внимание роли детских кроваток не только в создании комфорта для детей, но и в сохранении семейных и социальных ценностей. Целью статьи является освещение уникальности узбекской и казахской культуры и их влияния друг на друга.

**Ключевые слова:** Бесик, гаврапош, япгич, бешиктой, бешиккери, кувуз, эмгоч, колбог, тисти ма?, белагаш, сумак, туvak

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek va qozoq beshiklarining o'xshashlik va farqli jihatlar, ikki xalqning an'anaviy beshik madaniyati tadqiq qilinadi. Unda har ikki xalqqa tegishli beshiklarning dizayni, materiallari, bezaklari masalalari qiyoslanadi. Shuningdek, beshiklar milliy meros, tarixiy va madaniy kontekstda qanday ahamiyatga ega ekanligini ochib beriladi. Beshiklarning nafaqat bolalar uchun qulaylik yaratish, balki oilaviy va ijtimoiy qadriyatlarni saqlashdagi roliga ham e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** Beshik, gavrapo'sh, yopg'ich, beshikto'y, beshikkerti, quvuz, emgoch, qo'lboq',belagash, sumak , tuvak.

---

Qadimdan xalqimiz go'daklarning salomatligi va ularning barkamol bo'lib ulg'ayishi uchun beshiklarga belaganlar. Ular yog'ochdan ishlangan va mustahkam qilib yasalgan. Qiziq jihat shundaki, ularni biriktirishda mixlar deyarli ishlatilmagan. Hunarmandchilikning an'anaviy va ajralmas qismi sanalgan bu sohaga qiziqish nafaqat xalqimiz orasida, balki chet elliklar va turli tadqiqotchilarining e'tirofiga sabab bo'lmoqda. O'zbek beshiklari mohir hunarmand va duradgorlar tomonidan yasalgan. O'zbeklarga yaqin bo'lgan xalq qozoqlar moddiy madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan beshiklar o'zining salobati va go'zalligi bilan o'zbek beshiklaridan qolishmaydi. Beshik bu ko'plab xalqlar orasida go'daklarning orom oladigan go'shasi sanaladi. Beshiklarning paydo bo'lishi uzoq tarixga ega. Ular asrlar davomida sayqallanib kelgan va hozirgi buzilmas ko'rinishini kasb etadi. Ruslar va boshqa yevropalik xalqlar, turkiy xalqlarning beshiklari bir - biridan farq qilib kelgan. Bu ajoyib orom go'shasi xalq amaliy san'atining o'ziga xos ko'rinishini beradi.

Beshiklarning tarixi juda qadimga borib taqaladi. U haqdagi ilk ma'lumotlarni Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit – turk" asarida uchratish mumkin. Shuningdek, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida ham uchratish mumkin<sup>1</sup>. Beshiklarning bola ruhiyatida katta ahamiyatga ega ekanligi bois nafaqat yozma adabiyotlarda, balki xalq og'zaki ijodida ham o'z o'rniiga ega. "Alpomish", "Go'ro'g'li" va Oltinbeshik ertaklaridagi beshiklarning vazifalari afsonaga aylantirilgan. Shunga mos allalar ham paydo bo'lib, folkorda o'ziga xos janr sifatida shakllangan. Bolaning o'rni quruq bo'lishini ta'minlovchi *sumak* va *tuvak* esa faqat O'rta Osiyo xalqlari uchun xos<sup>2</sup>. Bu narsalarning ixiro etilishi ularning turmush tarzi va kundalik hayotiy zaruratlari bilan bog'liq. Chunki, azaldan ko'chmanchi hayot tarzida yashagan turkman, qirg'iz, qozoq va qoraqalpoq xalqlarida bolalarni beshikka belagan holda ham ko'chirib yuraverganlar. Bolaning tagi quruq bo'lishi esa safar mobaynida juda zarur bo'lgan. Shu sababli O'rta Osiyo xalqlarida ushbu qo'shimchalar kiritilgan. O'rta Osiyo xalqlarida beshiklarning yasalish usullari deyarli bir-biriga o'xshash. Masalan, an'anviy o'zbek beshiklari uzunligi 1-1,5 metr, balanligi esa 50 – 60 sm bo'lgan<sup>3</sup>.

Beshik yasaladigan xomashyo (yog'och) tol yoki tut daraxtidan olinadi. Beshiklarning yog'ochi bahorda, asosan, aprel oyalaridan olina boshlaydi. Bunda tollarning po'stlog'i shilinib, so'ngra quritiladi. Shu davr mobaynida ularga shakl berilib, qolipa solinadi. Dastlab qurigan yog'ochlarga rang beriladi va yana quritiladi<sup>4</sup>. Tolning qo'llanilishiga asosiy sabab, ularning qayishqoq va yengil ekanligi, yoriqlarning paydo bo'lishi ehtimoli past bo'ladi. Beshiklarning *tagpol* qismi tut yog'ochidan olinadi<sup>5</sup>. Bunga sabab tut daraxti qattiq va og'irlikni yaxshi ko'taradi. Tuttan shuningdek beshikning boshqa qismlari ham yasaladi. Ayrim so'rov larga ko'ra tut daraxtidan qilingan beshiklar xaridorgir ekan. Chunki, tut serhosil mevali daraxt bo'lganlididan, unda yotgan bolaning serfarzand, serdavlat bo'lishi niyat qilinadi. Xuddi shu kabi qozoq beshiklarining yasash jarayoni ham o'zbek beshiklaridan deyarli farq qilmaydi. Qozoq beshiklari ko'chib yurish uchun qulay shaklda tayyorlangan. Beshik yog'och qismlardan yig'iladi. Tuyalarga beshik osib qo'yiladigan dastasi *belagash* deyiladi. Belagash ikki uchidan *bogen* deb ataladigan kavisli? yog'och bo'laklar bilan bog'langan<sup>6</sup>.

Beshik yog'ochidan tashqari unga solinadigan turli ko'rpacha va boshqa qo'shimcha jihozlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Beshikda bola tinch yotishi uchun unga paxtali ko'rpacha, tekis yotishi uchun esa *qo'lboq'*, tagi quruq bo'lishi uchun esa *quvuz*, *sumak* va *tuvak* kerak bo'ladi. Shuningdek, beshikda bola tinch uxlashi uchun maxsus yopgichlar bo'lib, ular turli shevalarda turlicha aytildi. Masalan, ayrim hududlarda "yopgich", yana ayrim hududlarda esa "gavrapo'sh" deb qo'llanadi<sup>7</sup>. Yana turli qo'ng'iroqchalar, popukchalar va hokazolar. Ba'zida hayvon tishlari va tironqlari ham beshikning qo'shimcha jihoziga aylanadi. Jumladan, laqaylarda beshiklarga bo'rining tishi yoki burgut tirnog'ini osish odatining saqlanib qolayotganligini bunga misol

<sup>1</sup> ЎзМЭ "Б" ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 386-б.

<sup>2</sup> Muxlisa Mo'minova. Ming yillar sadosi .|| <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/oila-va-jamiyat/ming-yillar-sadosi>

<sup>3</sup> ЎзМЭ "Б" ҳарфи. Тошкент : Ўзбекистон - 2000. 386 б

<sup>4</sup> Ўзбек миллий бешиклари қандай ясалади? Бешиксозликоинг тарихи ва сир-асрорлари| Qadriyatlar beshigi "Қадриятлар бешиги" кўрсатуви. <https://youtu.be/qdNWM638gZE?si=GSUtjBZzBOgHXbWV>

<sup>5</sup> Ўзбек миллий бешиклари қандай ясалади? Бешиксозликоинг тарихи ва сир-асрорлари| Qadriyatlar beshigi "Қадриятлар бешиги" кўрсатуви. <https://youtu.be/qdNWM638gZE?si=GSUtjBZzBOgHXbWV>

<sup>6</sup> Айжан Ҳамит. Бесик. Символ бесконечного жизненного цикла|| <https://vlast.kz/obsshestvo/19100-besik-simvol-beskonecnogo-ziznennogo-cikla.html>

<sup>7</sup> Турсунов. С. Н., Пардаев. Т. Р., Махмадиёрова. М. Сурхондарё - этнографик макон. Тошкент : Академнашр - 2012. 134

tariqasida keltirish mumkin<sup>8</sup>. Ba’zi hollarda esa bolaning kesilgan kindigi ham uning bosh tarafiga qo‘yiladigan<sup>9</sup>. Bolani yomon ko‘zdan saqlash maqsadida esa ba’zi xoandonlarda Qur’oni Karim ham solib qo‘yiladi. Surxondaryoning ayrim hududlarida pichoq, piyoq, sarimsoq, non va ilon po’sti ham qo‘yilgan<sup>10</sup>. Shunaqa tumor va turli ramzlrni qo‘yish qozoqlarda ham keng yoyilgan bo‘lib, bunda ular beshik dastasiga boyqush patlari yoki bo‘ri panjasি osilib, bolaga tumor (Qur’он oyatlaridan iborat tumor) qo‘yilgan<sup>11</sup>. Bularning barchasi bolani yomon ko‘zdan va yovuz ruhlardan himoya qiladi, deb ishonilgan.

Qozoqlarning an’anaviy beshik uchun ishlatiladigan jihozlarining nomlanishi ham deyarli bir xil. Lekin qozoqlar turkiy guruhning qipchoq tarmog‘iga mansub til ekanligi sababli, beshikka oid atamalar biroz o‘zgargan shakldaligi bilan farqlanadi<sup>12</sup>.

Beshik tarkibiga quyidagilar kiradi: *bogen, belagash, jaktau, sabau, shabak, jo‘rg‘a, tubek, shumek*. Agar birinchi tushunchalar strukturaning bevosita tarkibiy qismlari bo‘lsa, unda oxirgi ikkitasi alohida e’tiborga loyiqidir. Tubek – bu bolalarning najasslari yig‘iladigan idish. Kul bolaning peshobini so‘rib olishi va yoqimsiz hidlarni zararsizlantirishi uchun tuvak ichiga soplib qo‘yilgan. Sumek – bu trubkasimon tuzilma bo‘lib, unga bola peshobi harkatlanib, tuvakka tushgan. Sumek yog‘ochdan yoki qo‘zichoq suyagidan qilingan. Uni tozalash uchun yog‘da qaynatish orqali amalga oshirildi. Ushbu dizayn tufayli chaqaloq har doim quruq va toza bo‘lib qoldi. Umuman olganda, beshik amaliy nuqtai nazardan zarur bo‘lgan darajada muqaddas ma’noga ega edi<sup>13</sup>. O‘zbek beshiklaridagi tuvak va sumakning ishlash tartibi bilan deyarli o‘xshash bo‘lgan tuvak va sumakning yasalishida ayrim farqlarni kuzatish mumkin. Avvalo, o‘zbek beshiklaridagi sumaklar yog‘och yoki sopoldan qilinadi. Ularning shakli bolaning jinsiga qarab belgilanadi. Tuvaklar esa chinni va sirlangan sopoldan ishlangan.

Beshik bilan bog‘liq aytimlar va marosimlar esa har ikki millatda alohida muhim masala sanaladi. Bolani beshikka belash jarayoni o‘zbeklarda alohida marosim sanaladi. Beshikka bolani belash udumi o‘zbek xalqida alohida marosim bosqichlarini talab qiladigan jarayon sanaladi. Beshikka bolani belash uchun, asosan, qarindosh-urug‘ ichida martabaga ega bo‘lgan serfarzand bo‘lgan yoshi ulug‘ ayol tanlab olingan. Bunday ayol, asosan, chaqaloqning momosi yoki katta momosi sanalgan<sup>14</sup>. Qozoq milliy madaniyatida ham bolani birinchi marta beshikka belash vazifasi ovuldagи eng keksa, obro‘li ayolga ishonib topshirilgan. Umuman olganda, bolani beshikka belash, bog‘lash va u bilan bog‘liq boshqa marosimlar qishloq oqsoqollari, hurmatli kishilarning qattiq nazorati ostida amalga oshirilgan<sup>15</sup>.

Yoshi ulug‘ ayol tomonidan beshikka belanishdan maqsad turlicha bo‘lishi mumkin. Avvalo, yoshi ulug‘ momolarimizning bola belash bo‘yicha tajribasi bo‘lsa, boshqa tomonidan bolaning umri ham shu momodek uzoq bo‘lsin degan niyat ham qilinadi. Beshikka solinguncha chaqaloqning atrofidagi ayollar tomonidan turli niyatlar bildirib

<sup>8</sup> Аширов. А. Ўзбек халқининг қадимги эътиқод ва маросимлари. Т.: Алишер Нвоий номидаги Миллий кутубхона нашрёти - 2007. 84 б

<sup>9</sup> Аширов. А. Ўзбек халқининг қадимги эътиқод ва маросимлари. Т.: Алишер Нвоий номидаги Миллий кутубхона нашрёти - 2007. 84 б

<sup>10</sup> Тўраназаров. Х. Қадим скиф - туркийлар. Тошкент : Шамсиқалам - 2021. 336 б

<sup>11</sup> Айжан Хамит. Бесик. Символ бесконечного жизненного цикла\\ <https://vlast.kz/obsshestvo/19100-besik-simvol-beskonecnogo-ziznennogo-cikla.html>

<sup>12</sup> ЎзМЭ "К" ҳарфи. Тошкент : Ўзбекистон - 2000. 208 б

<sup>13</sup> Айжан Хамит. Бесик. Символ бесконечного жизненного цикла\\ <https://vlast.kz/obsshestvo/19100-besik-simvol-beskonecnogo-ziznennogo-cikla.html>

<sup>14</sup> Аширов. А. Ўзбек халқининг қадимги эътиқод ва маросимлари. Т.: Алишер Нвоий номидаги Миллий кутубхона нашрёти - 2007. 84 б

<sup>15</sup> Айжан Хамит. Бесик. Символ бесконечного жизненного цикла\\ <https://vlast.kz/obsshestvo/19100-besik-simvol-beskonecnogo-ziznennogo-cikla.html>

turilgan. Bildirilgan niyatlar turli hududlarga ko‘ra farqlanadi. Bolani beshikka solish jarayonida aytildigan ko‘plab aytimlar qatorida bolaning botir bo‘lishi, uzoq umr ko‘rishi va baxtli bo‘lishi tilanadi<sup>16</sup>. Surxon vohasida niyat qilish va beshikka belanish davomida aytildigan aytimlarning o‘ziga xos xususiyatlar bor. Avvalo, beshikka bolani solish jarayonida “Bismillohi rahmoni Rahim” deya boshlanadi va “kuchugi kestin-u egasi kelsin”, - degan jumlalar aytildi<sup>17</sup>. Bundan maqsad, bolaning yotog‘i yengil (turli insu jinslardan holi) bo‘lishi va tinch orom olishiga erishishdir. Shuningdek, Termiz va uning atrofidagi ayrim qishloqlarida beshikka belangan bolaning ustiga 7 qatlagan holda doka yopilgan. O‘qlov bilan sekin urilib niyat qilinadi. Shuningdek, beshikda yotgan bolaning bosh tomoniga ikkita tosh olib bir-biriga urilgan. Bu holat keyin bolaning oyoq tarfiga ham qilingan<sup>18</sup>. Bunda bolaning tinch uxlashiga niyat qilingan. Mazkur rasm-rusmdan keyin bolaning ubti yopilib sochala qilinadi. Yopish jarayonida Surxon vohasida dasturxon tashlangan, ayrim tog‘li qishloqlarida esa qo‘y terisi – ya’ni po ‘stak yopilgan<sup>19</sup>. Bundan maqsad esa bolaning kelajagida serdavlat va barakali bo‘lishini tilash bo‘lgan. Keyin ohista, lekin ildam holda beshik tebratila boshlanadi. Onasi tomonidan unga alla aytildi.

Ma’lumki, ota-onalar farzandini beshikka shunchaki yotqiza olmaydilar. Bu butun bir marosim edi. Birinchi navbatda ona tarafி beshik pishirishi kerak edi. Nagashi jurt?, ya’ni ona tarafidagi qarindoshlar ona uchun *besik*, *kimeshek* va *kalja* (tug‘gan ayollar uchun tayyorlanadigan bo‘yin go‘shti), yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun kiyim-kechak olib kelishlari kerak edi<sup>20</sup>. Bu jihatlari bilan qozoqlarning ushbu marosimi o‘zbeklardagi beshikto‘y an’anasiga o‘xshashdir. Misol uchun o‘zbek beshik to‘ylarida beshikni chaqaloqning ona qarindoshlari – bobosi, buvisi, tog‘a va xolalari tomonidan qilingan. Beshik udumi bilan bog‘liq chaqaloqqa kerakli barcha buyumlar tayyorlangan. Dasturxonga non, patir va shirinliklar tugilgan. Shuningdek unga yana o‘yinchoqlar (qiz bo‘lsa qo‘g‘irchoq) qo‘shilgan<sup>21</sup>.

Qozoqlarda o‘zbeklarda mavjud bo‘limgan ayrim urf-odatlar ham mavjud. Bolani besikka qo‘yishdan oldin beshik yondirish marosimi o‘tkazilgan. Ko‘pincha buni buvisi amalga oshirdi. U issiq temirni olib, beshikning barcha qismlarini yoqib yubordi. *Besik siriktov* marosimi ham bajarildi. Bir dasta adiraspan o‘ti, archa yoki boshqa xushbo‘y o‘simlikni bir piyola ichiga o‘t qo‘yib, buvi yana beshikka tutun bilan muomala qildi. Marosim chog‘ida “Uzoq, uzoq, xudo asrasin yomon ko‘zdan, uf, uf” <sup>22</sup> deb turilgan. O‘zbek moddiy madaniyati beshikni kuydirish maraosim emas *balik xaloslar* marosimi bor. Ya’ni beshikni oftobga qo‘yilib, keyin uni atrofida isiriq tutatib qo‘yilgan<sup>23</sup>. Garchi bu udumlar turli insu jinslarni quvish uchun qilingan deyilgani bilan, bunda yana bir sabab bo‘lgan. Ya’ni mana shu amallar orqali beshikka o‘rnashgan turli bakteriya va zararli unsurlarni yo‘qotishga ham yordam bergen.

Qozoqlar bunday marosim bolani shaytonning hiyla-nayrangidan himoya qiladi, deb ishonishgan. Amaliy nuqtai nazardan, bu marosimni tutun beshik yasalgan yog‘ochni

<sup>16</sup> Турсунов. С. Н., Пардаев. Т. Р., Махмадиёрова. М. Сурхондарё - этнографик макон. Тошкент : Академнашр - 2012. 134 б

<sup>17</sup> Турсунов. С. Н., Пардаев. Т. Р., Махмадиёрова. М. Сурхондарё - этнографик макон. Тошкент : Академнашр - 2012. 134 б

<sup>18</sup> Тўраназаров. X. Қадим скиф - туркийлар. Тошкент : Шамсиқалам - 2021. 336 б

<sup>19</sup> O’sha asar. 336 б

<sup>20</sup> Айжан Хамит. Бесик. Символ бесконечного жизненного цикла\\ <https://vlast.kz/obsshestvo/19100-besik-simvol-beskonechnogo-ziznennogo-cikla.html>

<sup>21</sup> ЎзМЭ "Б" харфи. Тошкент : Ўзбекистон - 2000. 387 б

<sup>22</sup> Айжан Хамит. Бесик. Символ бесконечного жизненного цикла\\ <https://vlast.kz/obsshestvo/19100-besik-simvol-beskonechnogo-ziznennogo-cikla.html>

<sup>23</sup> Турсунов. С. Н., Пардаев. Т. Р., Махмадиёрова. М. Сурхондарё - этнографик макон. Тошкент : Академнашр - 2012. 135 б

tozalashi bilan izohlash mumkin. Buning natijasida mayda hasharotlar nobud bo‘lgan. Yana bir muhim marosimlardan biri – tustima? (tushdimi?) marosimi. Bolani beshikga qo‘yishdan oldin tuvakka idish qo‘yilgan, shirinliklar va bog‘irsoqlar, qurut va irimshik? solingan. Shundan so‘ng ayollardan biri so‘raydi: “tustima?” (tushdimi?), unga hamma baland ovoz bilan: “tusti, tusti” (tushdi, tushdi), - deya xitob qilingan. Shundan so‘ng, yig‘ilgan bolalar va ayollarga tarqatilgan. O‘zbeklarda ham bunday rasm-rusm bor bo‘lib, bunda tuvakka solib emas balki, yopg‘ich ustidan *sochala* qilingan. Shunda bola boy bo‘ladi va mo‘l-ko‘l yashaydi deb ishonishgan. Shundan so‘ng, bola beshikka joylashtirildi. Bolani yotqizib qo‘yishi bilan beshikka to‘qqiz narsa osilgan: kamcha, jilov, chopon, to‘n, kebenek (kigizdan tikilgan ustki erkaklar kiyimi), chekmen va hokazo. O‘zbeklarda esa 9 qavat emas, balki 7 qavat yopg‘ich yopilgan. Bunda har bir yopg‘ich biron ramziy ma’noni anglatgan: qahramon, mard, xalqini o‘ylaydigan inson bo‘lsin deya niyat qilingan.

**Xulosa.** O‘zbek va qozoq beshiklarining o‘xshashlik va farqlari haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala xalqning an‘anaviy beshiklari ularning madaniyati, tarixi va ijtimoiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘xshashliklar, asosan, beshiklarning asosiy vazifasi va ishlatalishida, shuningdek, ma’lum bir dizayn elementlarida namoyon bo‘ladi. Biroq, farqlar, asosan, materiallar, bezak uslublari va yasalish usullari xususiyatlarida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek beshiklari ko‘proq rang-barang bezaklar va an‘anaviy naqshlar bilan ajralib turadi, qozoq besiklari esa ko‘proq soddalik va funksionallikka e’tibor qaratadi. Ushbu farqlar har bir xalqning o‘ziga xos madaniy va tarixiy rivojlanishini aks ettiradi. O‘zbek va qozoq beshiklari nafaqat bolalar uchun qulay muhit yaratadi, balki oilaviy an‘analarni saqlash va avloddan avlodga o‘tkazish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Kelajakda, bu an‘anaviy beshiklarning ahamiyatini saqlab qolish va ularni zamonaviy konteksta rivojlantirish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarur.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar:**

1. Ayjan Xamit. Besik. Simvol beskonechnogo jiznennogo sikla\|  
ХТТПС://власт.кз/общество/19100-бесик-символ-бесконечного-жизненного-цикла.ХТМЛ
2. Tursunov. S. N., Pardaev. T. R., Maxmadiyorova. M. Surxondaryo - etnografik makon. Toshkent : Akademnashr - 2012. 134
3. Ashirov. A. O‘zbek xalqining qadimgi e’tiqod va marosimlari. T.: Alisher Nvoiy nomidagi Milliy kutubxona nashryoti - 2007. 84 b
4. To‘ranazarov. H. Qadim skif - turkiylar. Toshkent : Shamsiqalam - 2021. 336b